

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.M.Abdunazarov, M.H.Umarova Surxondaryo viloyati o'simliklar olamining geografik tarqalishi.....	272
A.K.Ergashev Avstraliya materigi yer usti suvlari tarqalishining hududiy xususiyatlari (daryolar misolida).....	277
R.T.Pirnazarov, S.I.Ussonova O'zbekiston va unga tutash tog'li hududlardagi to'g'onli ko'llar, ularning tadqiq etilishi va ular bilan bog'liq muammolarning keskinlashuvi.....	282

ILMIY AXBOROT

D.I.Ibragimova Isajon Sultonning tarixiy hikoyalarida mavzu va g'oya.....	290
Sh.A.Yuldashev, S.Muhammadjonova Optoelektronikada qo'llash uchun optronlar yaratish	293
A.A.Ergashev Nota muharriri finale-2003 ning amaliyotda qo'llanishi	298
I.Rustamov Yangi O'zbekistonda yaratilayotgan doira darsliklari va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli	302
M.Nasritdinova Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy-axloqiy-estetik dunyoqarashini yuksaltirishda musiqa san'atining o'rnini.....	306
M.V.Nasridinov Ingliz va o'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik sathlararo verbalizatorlari struktural-semantik turlari maydoni	310
G.O.Shaxbazova Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimini modernizatsiyalashning ijtimoiy-pedagogik zarurati	315
N.N.Norxo'jayeva Oliy texnik ta'lim muassasalari talabalarining kreativ-grafik kompetentligini rivojlantirish komponentlari va kriteriyalarining pedagogik mazmuni.....	318
D.R.Ismoilova Ingliz va o'zbek tillaridagi "Jinoyat" semantik maydoni	322
D.B.Toshpo'latova Malakaviy amaliyot vositasida talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashga innovatsion yondashuv.....	326
M.Ф.Рахмоналиева Медиаобразование и медиакомпетентность в современном социокультурном контексте в преподавании английского языка для студентов технического института.....	332
M.F.Adasheva Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	336
U.Q.Maqsudov, M.O.Yuldasheva O'qish savodxonligining asosiy tushunchalari va bolalar rivojlanishidagi roli	340
M.A.Abdujalilova Brief theoretical and historical roots of lingo-culture science. Lingo-cultural brief analysis of household items lexemes	348
U.T.Isakov O'zbek musiqa madaniyatini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	351
U.U.Xolova Abu Ali Ibn Sino va tasavvuf	356
T.Q.Jabborxonov, F.Sh.G'aprov, A.F.Raxmataliyev, Z.O.Yusupov O'rta Osiyoda tarqalgan Inula L. Turkumiga mansub turlarning ekologik mintaqalarda tarqalish tahlillari	360
Y.Y.Turakulov Pedagoglar kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari.....	366



UO'K: 379

YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY-ESTETIK DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHDA MUSIQA SAN'ATINING O'RNI**РОЛЬ МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА В УЛУЧШЕНИИ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЕЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА****THE ROLE OF MUSICAL ART IN IMPROVING THE SPIRITUAL, MORAL AND AESTHETIC WORLDVIEW OF YOUTH OF NEW UZBEKISTAN****Nasritdinova Madina**

Farg'ona davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti, Musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya

Yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishda ma'naviy-axloqiy-estetik tarbiya masalasini doimiy ravishda tahlil qilish dolzarb sanalgan globallashuv davrida yashamoqdamiz. Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy-axloqiy-estetik tarbiyasini yuksaltirishda musiqa san'ati imkoniyatlaridan foydalanish, ularning dunyoqarashi shakllanayotgan globallashuv zamonida madaniy musiqiy meros tushunchasini keng targ'ib qilish orqali ma'nan yetuk kadrlarni tarbiyalash masalalari ko'tarilgan.

Аннотация

Мы живем в эпоху глобализации, в которой важно постоянно анализировать вопрос духовно-этико-эстетического воспитания в воспитании духовного мировоззрения молодежи. В данной статье рассматриваются вопросы использования возможностей музыкального искусства для совершенствования духовно-этико-эстетического воспитания молодежи Нового Узбекистана, воспитания психически зрелых кадров путем широкой пропаганды концепции культурного и музыкального наследия в эпоху глобализации, когда формируется их мировоззрение.

Abstract

We are living in the era of globalization, in which it is important to constantly analyze the issue of spiritual-ethical-aesthetic education in raising the spiritual worldview of young people. In this article, the issues of using the opportunities of musical art to improve the spiritual-ethical-aesthetic education of the youth of New Uzbekistan, and to educate mentally mature personnel by widely promoting the concept of cultural and musical heritage in the era of globalization, when their worldview is being formed, are raised.

Kalit so'zlar: ma'naviy-madaniy meros, ommaviy madaniyat, innovatsiya, ma'naviyat, musiqa san'ati, insonparvarlik, yangilanish, yuksalish, vatanparvarlik, faxr

Ключевые слова: духовно-культурное наследие, массовая культура, новаторство, духовность, музыкальное искусство, гуманизм, обновление, подъем, патриотизм, гордость

Key words: spiritual and cultural heritage, mass culture, innovation, spirituality, musical art, humanitarianism, renewal, rise, patriotism, pride

KIRISH

Jahonning eng ilg'or mamlakatlari safidan munosib o'rin egallayotgan yangi O'zbekistonda tinch va farovon kelajak poydevorini mustahkamlash maqsadida jadal islohotlarni amalga oshirayotgan, yangilanish-yuksalishlar davom etayotgan yurtimizda insonga ehtirom, vatanparvarlik g'oyalari atrofida birlashishni taqazo etmoqda. Bu esa mazkur jarayonlarni yoshlar ongiga singdirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, siyosiy-huquqiy tafakkurini o'stirish, ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy dunyoqarashini yuksaltirishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlari bo'lgan ma'naviy-madaniy merosimizni keng targ'ib qilishni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Madaniyat, san'at, fan va ta'lim sohalarini rivojlantirish uni yangi dunyoqarash nuqtai nazaridan taraqqiy toptirish bu sohalarda ham chuqur islohotlarni amalga oshirish davlatimiz va jamiyatimiz istiqbolining ustivor yo'nalishlaridan biridir. Albatta, bunday zamonaviy tushunchalar, yangi uslublar,

ILMIY AXBOROT

kashfiyotlar nechog'lik ahamiyatli bo'lsa ajdodlarimizning bu sohalaridagi ma'naviy ijodiy merosning ahamiyati ham undan kam emas.

Dunyoning ayrim hududlarida taraqqiyotlar natijasida katta ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlarini, milliy tafakkuri va tumush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin. "Eng yomoni, bunday xurujlarning pirovard oqibati odamni o'zi tug'ilib o'sgan yurti va xalqidan tonishga, vatanparvarlik tuyg'ularidan mahrum etishga va hamma narsaga loqayd bo'lgan shaxsga aylantirishga qaratilgani namoyon bo'lmoqda". Ana shunday salbiy holatlarni bartaraf etish, oldini olish, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, mafkuraviy profilaktika ishlarining samaradorligini oshirish, milliy g'oyalarni yoshlar ongiga singdirish masalalarida musiqa san'ati vositasida yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirishda imkoniyatlaridan samarali foydalanishga ehtiyoj seziladi.

Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllanishida o'z ta'sirini ko'rsatmoqda hamda mazkur jarayonda immunitet sifatida namoyon bo'ladigan yuksak insonparvarlik tamoyillarini yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bu bir tomondan, yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda, ikkinchi tomondan, ularning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirish mezoni bo'lgan ma'naviy-axloqiy tarbiyasida namoyon bo'ladi. Bu esa, mamlakatimiz yoshlari ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishga qaratilgan ommaviy-madaniy tadbirlar ahamiyatiga innovatsion yondashuvlar negizida ilmiy izlanishlar olib borishga undamoqda. Demak, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishda ma'naviy-axloqiy-estetik tarbiya masalasini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Dunyoda yoshlarning ijtimoiy faolligi oshirish, ularning bandligini ta'minlash bilan bog'liq fundamental tadqiqotlar, xususan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning aksiologik, ratsionalistik va praktsiologik yo'nalishlarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar o'zining muhimligi bilan alohida ahamiyatlidir. Ta'kidlash kerakki, bugungi globallashuv jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiya oqilona foydalana olmaslik, fuqarolik jamiyati shakllanishida, jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiya ahamiyatini, ularning yoshlar ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishdagi o'rnini tahlil qilish muammolarini innovatsion metodlar vositasida maxsus ilmiy tadqiq qilish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli, unumli o'tkazishlari, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashlari, qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarishlari uchun ma'naviy-axloqiy tarbiya vositalaridan oqilona foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, xususan, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, madaniyat va san'at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini munosib qadrlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar"ni yetarlicha o'rganishni taqozo qilmoqda.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan madaniyat sohalarni rivojlantirish borasida chiqarilgan farmon va qarorlari, beshta tashabbus bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, ayniqsa bu tashabbuslarda yoshlarni ma'naviy barkamollikka yetkazishda ommaviy-madaniy tadbirlarning o'rnini alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-43-07-sonli qaroriga asosan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi qoshida "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati tashkil etildi. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori, 2020-yil 26-mayda e'lon qilgan "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rnini va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni joylarda tashkil etiladigan ommaviy-madaniy tadbirlarning ijtimoiy mavqeyini yuksaltirish borasida muhim ahamiyat kasb etadi, 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-sonli Qarori esa sohaning rivoji uchun zarur bo'lgan ulkan imkoniyatlar eshigini ochdi. Yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishda musiqa san'atini ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida qaralishi alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, yoshlarga iqtisodiy

bilimlarni berishda, ularning madaniy saviyasini oshirishda, har tomonlama sog'lom, jismonan baquvvat, ma'nan zukko va topqir bo'lib ulg'ayishlarida, fan-texnika yutuqlarini, huquqiy bilimlarni targ'ib qilishda, bunda albatta yuqorida ta'kidlaganimizdek muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan yoshlarimizning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Ulg'ayib borayotgan yosh avlodni ma'naviy qashshoqlikdan olib chiqadigan kadrlar – ilm-fan namoyondalari bilan bir qatorda madaniyat va san'at xodimlaridir. Shuningdek, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatiga alohida e'tibor berilishining bosh sabablaridan biri, mamlakatimizda hozirgi vaqtda 6 mingdan ortiq madaniyat uylari, 17 ming kutubxona-axborot resurs markazlari, 320 ta muzey hamda 120 ta madaniyat va istirohat bog'larida ishlayotgan 12 ming kishidan iborat xodimlarning yarmidan ko'prog'i o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan soha xodimlari ekanligidir. Ularni oliy ma'lumotga ega bo'lishlari uchun bugungi kunda mamlakatimizda juda katta ishlar amalga oshirilmoqda.

TADQIQOT NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shaxsni musiqa san'ati vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tarixiga qisqacha nazar solsak, o'zining g'oyaviy jihatdan kompozitsion butun bo'lgan Qadimgi Yunoniston va Rim davridagi an'analar bunga misol bo'la oladi. Qadimgi Yunoniston va Rimda musiqa madaniyati insoniyat paydo bo'lganidan boshlab vujudga kelib, shakllana boshlagan. Qadimgi Yunonistonda yosh barkamol avlod tarbiyasiga alohida ma'suliyat bilan yondashilgan. Musiqiy ta'limga ega bo'lmaganlar "katartis"-ya'ni, ilmsiz deya qoralangan. Musiqa san'atini o'zlashtirish majburiy hisoblangan.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqining ham eng qadimgi davrlardan shakllana boshlagan asrlar bo'yi avlod-dan-avlodga o'tib kamol topib bebaho merosiga aylangan bayramlari ko'p. Bu bayramlar eng qadimiy davrlarda xalq ommasi ehtiyoji bilan shakllana borgan, ijtimoiy zarurat asosida rivoj topgan va boshqa xalqlar tajribasi bilan boyib kelgan.

Haqiqatan ham bayramlar tufayli shodiyonalar, tantanali voqealar, muhim sanalar, ulkan yutuqlar nishonlanadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya shaxsning ijtimoiy ma'naviy imkoniyatlarini to'la namoyon qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Shuningdek, mazkur musiqa san'ati vositasidan samarali foydalanish shaxs va jamiyat ma'naviy salomatligining asosiy omili hisoblanadi.

O'zbekistonning azaliy urf-odatlarini, qadriyatlarini, ma'naviy dunyoqarash stereotipida an'anaviy xalq pedagogikasi katta ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi kungacha bu an'analar bizgacha yetib kelgan. Ayniqsa, insonlardagi bir-birini e'zozlash, kattalarni hurmat qilish, ezgulikka intilish, go'zallikni asrash, milliy qadriyatlarni qadrlash, ilm-fanga intilish, vatanni sevish kabi chuqur falsafiy g'oyalar ilgari surilib, tarbiyaning poydevori bo'lib xizmat qilgan. Zamonaviy hayot tarzimizda ham ana shu xalq pedagogikasining asosiy o'g'itlarini saqlab, yanada modernizatsiyalash va kelajak avlod axloqiy tarbiyasini yuksaltirishga xissa qo'shishda musiqa san'ati imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

O'zbekistonning qo'lga kiritgan eng katta boyliklaridan biri shuki, shaxs tafakkurida sifat o'zgarishlar yuzaga keldi. Bugungi yoshlarning ijtimoiy faolligi, siyosiy-huquqiy madaniyati, ma'naviy qiyofasi bilan mamlakatimizda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlariga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shmoqdalar.

XULOSA

Yoshlarni musiqa san'ati vositasida ma'naviy-axloqiy-estetik tarbiyasini yuksaltirishning nazariy asoslarini ilmiy tahlil qilish madaniyat sohasida islohotlar o'tkazish, mamlakatning innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishi, jamiyatni rivojlantirishning maqsad va ahamiyatini anglashga xizmat qiluvchi madaniy muhitda intellektual va madaniy rivojlangan kadrlarni tayyorlash uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. –Т.: Шарқ нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2002. –Б. 3,15
2. Мазаев А.И. Праздник как социально-художественное явление. –М.: Наука. 1978. С. 172
3. Маматқосимов Ж. Оммавий байрамлар режиссурасида саҳна маданияти. –Тошкент: Фан ва технологиялар. 2009. –Б. 21

ILMIY AXBOROT

4. Янги Ўзбекистоннинг истеъдодли ёшлари. –Т.: Таълим нашриёти. 2021. Ўзбекистон ёшлари – учинчи ренессанснинг асосий драйвери. Илмий ишлар тўплами. 3-китоб. –Б. 334-335

5. Ҳозирги даврнинг долзарб ижтимоий, иқтисодий, маънавий-маърифий жараёнларини ўрганишга оид саволларга қисқача жавоблар. Фарғона политехника институти. –Фарғона.: 2003. –Б. 28-29

6. Мавлуда Нажметдинова Янги Ўзбекистон шароитида ёшларининг маънавий дунёқарашини ривожлантиришда мусиқа фанининг ўрни 125-129 betlar